



PROTOTYPICAL INTERPRETATION OF CONCEPT AND CONCEPTUAL SYSTEM IN COGNITIVE LINGUISTICS (A CASE STUDY OF THE "INTERNET" CONCEPT)

Keunimjaeva Mekhriban Ongarbay qizi

PhD Student, NSPI

keunimjaeva.m@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20605690>

ARTICLE INFO

Received: 02nd June 2026

Accepted: 08th June 2026

Online: 09th June 2026

KEYWORDS

Concept, conceptual system, cognitive linguistics, prototype theory, categorization, core and periphery.

ABSTRACT

The article examines the concept, one of the central categories of cognitive linguistics, and analyzes the structure of the conceptual system as a form of knowledge organization in the human mind. Drawing on the definition proposed by E. S. Kubryakova and her colleagues, the concept is interpreted as a complex mental unit that embodies an individual's cognitive, emotional, and cultural experience. The study demonstrates the methodological potential of the prototypical categorization approach for describing the internal organization of concepts and conceptual systems and explains their core-periphery structure. Theoretical considerations are illustrated through the example of the Internet concept by identifying its central and peripheral elements within the lexical-semantic field. The findings show that the central and peripheral elements of the Internet concept can be described according to degrees of typicality, and their features of representation within the lexical-semantic field can be identified.

KOGNITIV LINGVISTIKADA KONSEPT VA KONSEPTUAL TIZIMNING PROTOTIPIK TALQINI ("INTERNET" KONSEPTI MISOLIDA)

Keunimjaeva Mexriban Ongarbay qizi

NDPI tayanch doktoranti

keunimjaeva.m@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20605690>

ARTICLE INFO

Received: 02nd June 2026

Accepted: 08th June 2026

Online: 09th June 2026

KEYWORDS

Konsept, konseptual tizim, kognitiv lingvistika, prototipik nazariya, kategoriyalash, yadro va periferiya.

ABSTRACT

Maqolada kognitiv lingvistikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lgan konsept tushunchasi yoritilib, inson ongida bilimlarni tashkil etish shakli sifatida konseptual tizimning tuzilishi tahlil qilinadi. E.S.Kubryakova va hammualliflari ta'rifiga tayangan holda, konsept shaxsning kognitiv, emotsional va madaniy tajribasini mujassamlashtiruvchi murakkab mental birlik sifatida izohlanadi. Konsept va konseptual tizimning ichki tashkil topishini tavsiflashda prototipik kategoriyalash



yondashuvining metodologik imkoniyatlari ko'rsatilib, konseptlarning yadro-periferiya tuzilmasi tavsiflanadi. Nazariy holatlar "internet" konsepti misolida leksik-semantik maydon doirasida yadro va periferiya birliklarini ajratish orqali qisqacha yoritiladi. Tadqiqot natijasida "internet" konseptining markaziy va periferik elementlari tipiklik mezonlari asosida tavsiflanib, ularning leksik-semantik maydondagi ifodalanish xususiyatlari ko'rsatildi.

Kirish

Zamonaviy kognitiv lingvistikada inson ongida bilim va tajribani ifodalovchi asosiy birliklar sifatida konseptlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu termin ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanilishiga qaramay, hozirgi kungacha uning yagona va umumiy qabul qilingan ta'rifi ishlab chiqilmagan. Bu holat konseptni talqin qilish va modellashtirishda turli yondashuvlarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi konsept va konseptual tizim haqidagi nazariy qarashlarni tizimlashtirish zaruriyati, shuningdek, ularni tavsiflashning samarali modellarini izlash bilan belgilanadi. Shunday modellardan biri prototipik kategoriyalash yondashuvi bo'lib, u konseptlarni noaniq chegaralarga ega hamda tipiklik darajasiga ko'ra ichki jihatdan gradatsion tashkil topgan tuzilmalar sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi kognitiv lingvistikada konsept va konseptual tizimni tushunishga doir asosiy yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularni tavsiflashda prototipik yondashuvni qo'llashning maqsadga muvofiqligini asoslashdan iborat.

Metodlar

Tadqiqot nazariy-analitik yo'nalishda olib borildi va quyidagi usullar qo'llandi:

1. Definitcion tahlil: konsept va konseptual tizimga oid ilmiy ta'riflar tahlil qilindi. Asosiy tayanch manba sifatida E. Kubryakova va hammualliflarining ta'riflari olindi [3:90], [3:94].

2. Prototipik tahlil: konseptning ichki tuzilishini tavsiflashda prototipik kategoriyalash nazariyasining asosiy qoidalaridan foydalanildi. (E. Rosh, 1973, 1976; qarang: Dj. Lakoff, 2004) [4:62].

3. Leksik-semantik maydon tahlili: "semantik maydon" tushunchasi ishchi ta'rif sifatida M. Krongauz asosida qabul qilindi [2:130] va "internet" konseptini ifodalovchi leksik birliklar semantik yaqinlik hamda tipiklik darajasiga ko'ra tavsiflandi.

4. Nazariy taqqoslash: prototipik kategoriyalash va semantik maydon nazariyalariga oid ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilindi. Bunda Dj. Lakoffning prototipiklik haqidagi qarashlari [4:89] hamda V.G. Admoni tomonidan maydon tuzilishiga doir ilgari surilgan fikrlar [1:26-27] o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi.

Material sifatida ochiq onlayn manbalarda (yangilik platformalari, bloglar, forum postlari) hamda ijtimoiy



tarmoq matnlarida uchraydigan, kundalik nutqda keng ishlatiladigan leksik birliklar tanlandi; tahlil korpus-statistik usulga tayantirilmagan bo'lib, birliklar tipiklik mezonlari asosida muallif tomonidan ekspert baholash orqali guruhlandi. Birliklar tanlashda uch mezon qo'llandi: (1) umumiylik va keng qo'llanish (oddiy foydalanuvchi tajribasida tez faollashishi); (2) konseptning asosiy funksiyalarini aks ettirishi (aloqa, axborotga kirish, servislari); (3) ixtisoslashuv darajasi (xavfsizlik, texnik sozlash, infratuzilma). Ushbu mezonlar konseptning kognitiv va funksional xususiyatlarini kompleks tarzda hisobga olib, yadro va periferiya birliklarini farqlashni amaliy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Yadro-periferiyani ajratish mezonlari

“Yadro” birliklar quyidagi xususiyatlarga ega deb qabul qilindi: (a) semantik jihatdan umumiy va minimal tushuntirish bilan anglatiladigan; (b) ko'p nutqiy vaziyatlarda zarur va odatda “birinchi bo'lib esga tushadigan”; (c) konseptning asosiy kognitiv va funksional belgilarini beradi. “Periferiya” birliklar esa: (a) tor soha yoki maxsus vaziyatda faollashadi; (b) ko'pincha qo'shimcha bilim talab qiladi; (c) konseptga kontekstual/teknologik qatlam qo'shadi. Shunday qilib, yadro va periferiya farqi tipiklik darajasi bo'yicha gradatsion ko'rinishda talqin qilinadi.

Natijalar

Konsept ta'rifi va uning mazmuni

Konseptlar va konseptual tuzilmalarni o'rganish lingvistik adabiyotlarda mavjud bo'lgan ilmiy yondashuvlarga tayanishni talab etadi. Tadqiq etilayotgan tushunchalarni

chuqurroq anglash uchun mavjud ilmiy ta'riflarga murojaat qilindi. E. Kubryakova va uning hammualliflari tomonidan tuzilgan “Краткий словарь когнитивных терминов” lug'atida konseptga quyidagicha ta'rif beriladi: “Концепт - термин, служащий объяснению единиц ментальных или психических ресурсов нашего сознания и той информационной структуры, которая отражает знание и опыт человека ...” [3:90].

Ushbu ta'rif konseptning bilimlar, assotsiatsiyalar, emotsiyalar va madaniy ma'nolarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab mental birlik ekanini ta'kidlaydi.

Konseptni inson ongida shakllanadigan va unga atrof-muhitni talqin qilish, tartibga solish hamda unda yo'nalish topish imkonini beradigan murakkab psixik tuzilma sifatida tushunish mumkin. Konsept faqat bilim emas: u sezgi tajribasi, hissiy munosabat va shaxsiy tajriba bilan boyigan murakkab mental birlikdir. So'z bilan to'qnash kelganimizda yoki uni talaffuz qilganimizda, mazmun faqat uning lug'aviy ma'nosi bilan emas, balki xotiralar, assotsiativ bog'lanishlar, madaniy fon va shaxsiy munosabatlar tarmog'i orqali shakllanadi. Shu tariqa, konsept til, tafakkur va individual tajribaning o'zaro aloqasini aks ettiruvchi asosiy kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Konseptual tizim ta'rifi

Konseptual tizim quyidagicha ta'riflanadi: “Концептуальная система или структура тот ментальный уровень или та ментальная (психическая) организация, где сосредоточена совокупность всех



концептов, данных уму человека, их упорядоченное объединение” [3:94].

Ushbu ta’rifga tayangan holda, mazkur tadqiqotda konseptual tizim inson ongidagi o’zaro bog’langan konseptlar majmui sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan uni shartli ravishda “axborot tarmog’i”ga qiyoslash mumkin: unda konseptlar bir-biri bilan turli darajadagi bog’lanishlar orqali ulanadi va kognitiv vaziyatga qarab turlicha faollashadi. Mazkur metafora konseptlarning insonning ichki kognitiv makonidagi - bilimlar, xotiralar, kechinmalar va hayotiy kuzatuvlar bilan bog’liq holda tashkil topishini tushuntirishga xizmat qiladi. Shu orqali konseptual tizim faqat axborotni saqlovchi “ombor” emas, balki insonning dunyoni idrok etishi, talqin qilishi va unga munosabatini shakllantiruvchi dinamik kognitiv arxitektura sifatida namoyon bo’ladi.

“Internet” konseptining mazmuniy komponentlari

“Internet” konsepti faqat bitta umumiy obraz emas, balki bir nechta tarkibiy komponentlarning yig’indisi sifatida ham namoyon bo’ladi. Xususan, (1) axborotni izlash (qidiruv, so’rov, natija), (2) muloqot va ijtimoiylik (onlayn aloqa, chat, ijtimoiy tarmoq), (3) Veb-muhit: veb-sayt, sahifa, brauzer, akkaunt, (4) infratuzilma va ulanish (tarmoq, ulanish, tezlik, trafik), (5) servis va xizmatlar (onlayn xizmatlar, platforma), (6) xavfsizlik va maxfiylik (fishing, vishing, VPN) kabi tarkibiy komponentlar ajratiladi.

Mazkur komponentlar konsept bilan bog’liq bilimlarning turli jihatlarini aks ettiradi hamda konseptual tizimda kommunikativ vaziyat va individual

tajribaga qarab turlicha faollashadi. Keltirilgan guruhlash muallif tomonidan interpretativ tahlil asosida tavsiflangan.

Prototipik kategoriyalashning nazariy asoslari

Prototipik yondashuv kategoriyalarning gradatsion tabiatini ko’rsatadi; keyingi kognitiv tadqiqotlarda bu tuzilma ko’pincha yadro va periferiya modeli orqali izohlanadi. Mazkur yondashuvning nazariy asosi sifatida E. Roshning (E. Rosh,1973,1976; qarang: Dj.Lakoff, 2004) prototipik effektlar nazariyasi ko’rib chiqiladi. Unga ko’ra, kategoriya elementlari turli darajadagi tipiklikka ega bo’lib, ular assimetrik taqsimlangan tuzilmani tashkil etadi [4:62-63]. Bundan tashqari, E.Rosh (E.Rosh,1976; qarang: Dj.Lakoff, 2004) kategoriyalash iyerarxiyasida “bazaviy daraja” mavjudligini ko’rsatadi. Bu darajada kategoriyalar yaxlit idrok etiladi, tez tanib olinadi va odatda qisqa hamda neytral nomlar bilan ifodalanadi. Aynan shu daraja bolalar tomonidan so’zlarning dastlab o’zlashtiriladigan bosqichi hisoblanadi va inson bilimlari asosan shu yerda tartibga solinadi [4:71-72]. Mazkur yondashuv internet konseptining ichki tuzilmasini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etib, uning yadro va periferiya asosida tashkil topganligini izohlash imkonini beradi.

“Internet” konsepti: yadro va periferiya

Prototipik kategoriyalash nuqtai nazaridan “internet” konsepti bilan bog’liq bilimlar tizimida ayrim belgilar va tasavvurlar boshqalariga nisbatan tipikroq hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotda konseptning markaziy (eng tipik) va periferik elementlari shartli



ravishda ajratildi. Mazkur tadqiqot doirasida internet bilan bog'liq eng tipik va tez faollashadigan kognitiv obrazlar markaziy elementlar sifatida talqin qilindi: *aloqa tarmog'i, axborotga kirish, qidiruv tizimlari, veb-saytlar, onlayn muloqot*.

Shu bilan birga, "internet" konseptining periferik zonasi individual va madaniy tajriba hamda kontekstga bog'liq kengaytmalarni o'z ichiga oladi: *masofaviy ish, onlayn ta'lim, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn savdo, kontent yaratish hamda axborot xavfsizligi va maxfiylik bilan bog'liq hodisalar (virus, phishing, ma'lumotlar sizishi)*.

Muhokama

Lingvistikada "semantik maydon" termini turlicha talqin qilinadi. Shu sababli maqolada ishchi ta'rif sifatida M. A. Krongauz ta'rifi qabul qilinadi:

"Семантическим полем называется множество слов, объединенных общностью содержания, или, говоря более конкретно, имеющих общую нетривиальную часть в толковании" [2:130].

Mazkur ta'rif kognitiv-lingvistik tahlil uchun mos keladi, chunki u semantik maydonni mazmuniy umumiylik asosida tizimli birlik sifatida belgilaydi. Bunday tizimda elementlar o'zaro teng emas, balki semantik yaqinlik darajasiga ko'ra farqlanadi, bu esa ularni prototipik kategoriyalash tamoyiliga muvofiq yadro va periferiya sifatida talqin qilish imkonini yaratadi.

Bu qarashlar Dj.Lakoffning fikrlari bilan hamohangdir. Uning ta'kidlashicha, prototipiklik tilning barcha asosiy darajalarida - fonologiya, morfologiya, sintaksis va semantikada - namoyon

bo'ladi va ko'pincha aniq chegaralar va teng huquqli elementlarni nazarda tutuvchi klassik kategoriyalar nazariyasiga sig'maydi [4:89]. Mazkur yondashuv lingvistik kategoriyalarning ichki tuzilmasi gradatsion va markaz-periferiya xarakteriga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bir qator tadqiqotchilar maydon tuzilmasini tizimli yondashuv asosida talqin qilib, maydon markazida eng tipik va tizimni shakllantiruvchi birliklardan iborat yadro, chekka qismida esa kamroq tipik elementlar joylashishini qayd etadilar. Xususan, V.G.Admoni (V.G.Admoni,1973; qarang: I.V.Arnold,1991) maydonni o'zaro tizimli munosabatlar bilan bog'langan elementlar tizimi sifatida ko'rib, yadroni to'liq belgilarga ega bo'lgan eng vakillik birliklar, periferiya esa faqat ayrim belgilarni namoyon etuvchi va ko'pincha qo'shni maydonlar bilan kesishuvchi elementlar tashkil etishini ta'kidlaydi. Ya'ni, yadrodan uzoqlashgan sari elementlarning dominant belgilari pasayib boradi va fakultativ belgilar paydo bo'ladi [1:26-27]. Shunday qilib, bu fikrlar maydon tuzilmasi gradatsion xarakterga ega ekanligidan darak beradi.

Mazkur nazariy holatni "internet" konsepti misolida ham kuzatish mumkin.

"Internet" konseptining leksik-semantik maydondagi ifodalanishi ham yadro va periferik tuzilma asosida tashkil topadi. Ushbu yondashuvda konsept lingvistik birliklar orqali realizatsiya qilinadi va semantik yaqinlik darajasiga ko'ra tizimlashadi.

Interpretativ tahlil natijalariga ko'ra, *tarmoq, veb, sayt, brauzer, qidiruv va onlayn aloqa* kabi birliklar "internet" konseptining eng tipik lingvistik



reprezentantlari sifatida markaziy zona tarkibiga kiritildi.

Periferiya qismida esa *VPN, strim, fishing* kabi ixtisoslashgan va kontekstga bog'liq birliklar joylashadi. Keltirilgan birliklar interpretativ tahlil asosida ajratildi. Demak, "internet" konseptining leksik-semantik maydonida ham yadro dan uzoqlashgan sari dominant belgilar susayib, fakultativ belgilar kuchayadi; bu esa maydonning gradatsion xarakterini tasdiqlaydi.

Cheklovlar va istiqbol

Mazkur maqola nazariy yo`nalishda bo'lgani sababli "internet" konsepti yadro/periferiyasi korpus statistikasi yoki so`rovnomaga orqali kvantitativ tekshirilmagan. Kelgusida: (1) OAV va ijtimoiy tarmoq matnlari korpusi asosida yadro birliklarning chastotasini aniqlash; (2) respondentlar sorovi orqali "birinchi assotsiatsiyalar" testlarini o'tkazish; (3) IT diskursida periferiya birliklarining faollashish sharoitlarini tahlil qilish prototipik talqinning empirik asosini kuchaytiradi.

Xulosa

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, konsept kognitiv lingvistikada inson tajribasining kognitiv, emotsional va madaniy komponentlarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab mental birlik hisoblanadi. Konseptual tizim esa shaxsning mental makonida konseptlarning dinamik tashkil etilish shakli sifatida tavsiflanadi.

Prototipik yondashuv konseptning yadro-periferiya tuzilmasini asoslashga xizmat qildi. Xuddi shunday tamoyil leksik-semantik maydonlarda ham kuzatiladi: semantik maydon tizimli birlik sifatida namoyon bo'lib, uning tuzilmasi yadro va periferiya asosida tashkil topadi hamda yadro dan periferiya tomon gradatsion xarakterga ega bo'ladi. Bunda yadro va periferiya birliklari korpus-statistik yoki eksperimental ma'lumotlar asosida emas, balki tipiklik mezonlariga tayangan interpretativ tahlil asosida ajratilgan bo'lib, ularning empirik verifikatsiyasi keyingi tadqiqotlar vazifasi sifatida qaraladi.

References:

1. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. — М : Высш. школа, 1991. — 140 с.
2. Кронгауз М. А. Семантика: Учебник для студ. лингв. фак. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Издательский центр «Академия», 2005. — 352 с.
3. Кубрякова Е. С., Демьянков В. З., Панкрац Ю. Г., Лузина Л. Г. Краткий словарь когнитивных терминов. — М., 1996.
4. Лакофф Джордж. Женщины, огонь и опасные вещи: Что категории языка говорят нам о мышлении / Пер. с англ. И. Б. Шатуновского. — М.: Языки славянской культуры, 2004. — 792 с. — (Язык. Семиотика. Культура).